

Surxondaryo viloyatida demografik holat

2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida" 629-son qaroriga muvofiq, aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning yakuniy natijalari 2027-yil 1-iyulga qadar tayyorlanishi belgilangan

Ro'yxatga olishning yakuniy natijalari rasmiy e'lon qilinganidan so'ng doimiy aholi soni belgilangan tartibda, ro'yxatga olish natijalari asosida e'lon qilinadi.

Shu munosabat bilan 2026-yil 1-iyul holatiga demografik ko'rsatkichlar Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligining ma'lumotlar integratsiyasi bo'yicha shakllantirildi.

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026-yilning 1-iyul holatiga, Surxondaryo viloyatining doimiy aholisi soni 3037,0 ming kishini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 2,1 foizga ko'paygan. 2026-yil yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni 35,5 ming nafarni, vafot etganlar 6,5 ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish 29,0 ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar 18 kishini, viloyatdan xorijga ko'chib ketganlar soni 9 kishini, qayd etilgan nikohlar 7,5 mingtani, nikohdan ajralishlar 1,7 mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	3037,0	ming kishi
Tug'ilganlar soni	35,5	ming kishi
Vafot etganlar soni	6,5	ming kishi
Xorijdan ko'chib kelganlar	18	kishi
Xorijga ko'chib ketganlar	9	kishi
Nikohlar soni	7,5	ming birlik
Nikohdan ajralishlar soni	1,7	ming birlik

II. Doimiy aholi soni


Surxondaryo viloyatida doimiy aholi soni 2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra, 3037,0 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 62,6 ming kishiga yoki 2,1 foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda 1095,9 ming kishi (jami aholi soniga nisbatan 36,1 %), qishloq joylarda esa 1941,1 ming kishi (63,9 %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni 1499,5 ming kishini (49,4 %), erkaklar esa 1537,5 ming kishini (50,6 %) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2025-yil	2026-yil	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	2 974,4	3 037,0	102,1
Termiz sh. tumanlar:	210,0	214,5	102,1
Oltinsoy	199,1	203,6	102,3
Angor	148,4	151,3	102,0
Bandixon	86,3	88,5	102,5
Boysun	128,0	130,3	101,8
Muzrabot	158,1	161,0	101,8
Denov	435,1	444,7	102,2
Jarqo'rg'on	246,2	251,4	102,1
Qumqo'rg'on	264,2	269,6	102,0
Qiziriq	128,1	130,6	102,0
Sariosiyo	234,9	239,7	102,0
Termiz	88,4	91,1	103,1
Uzun	194,2	198,4	102,2
Sherobod	216,7	220,5	101,8
Sho'rchi	236,7	241,8	102,2

Surxondaryo viloyatida 2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra, 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 151,1 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 3,1 kishiga ortgan (2025-yil 1-iyul holatiga 1 kv.km.ga 148,0 kishi).

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **35,5** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **23,6** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **1,5 ming** nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **6,5** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,3** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **166** nafarga ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatimizda tirik tug'ilganlar soni 35,5 ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni 18,3 ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan 51,5 %), qiz bolalar soni 17,2 ming kishini (48,5 %) va shahar joylarida 11,9 ming kishini (33,5 %), qishloq joylarida 23,6 ming kishini (66,5 %) tashkil etdi.

Viloyatimizda vafot etganlar soni 6,5 ming kishini, shundan erkaklar 3,6 ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan 55,4 %), ayollar 2,9 ming kishini (44,6 %) va shahar joylarida 2,1 ming kishini (32,3 %), qishloq joylarida, 4,4 ming kishini (67,7 %) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan nikohlar soni **7,5** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti 5,0 promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan 0,5 ming birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni 1,7 ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti 1,1 promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan 208 taga ko'paygan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni 7,5 ming birlikni, shundan shahar joylarida 2,7 ming birlikni (36,0 %), qishloq joylarida 4,8 ming birlikni (64,0 %) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni 1,7 ming birlikni, shundan shahar joylarida 0,7 birlikni (41,2 %), qishloq joylarida 1,0 birlikni (58,8 %) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2026-yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni 7368 kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar 7350 kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar 18 kishini tashkil qildi.

Ko'chib ketganlar jami soni 10361 kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar 10352 kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar 9 kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Surxondaryo viloyati	7 368	7 350	18	10 361	10 352	9
Termiz sh.	1 855	1 842	13	1 894	1 890	4
tumanlar:						
Oltinsoy	239	239	-	423	422	1
Angor	353	353	-	469	469	
Bandixon	232	232	-	264	264	
Boysun	325	325	-	564	564	
Muzrabot	293	293	-	578	578	
Denov	528	528	-	984	983	1
Jarqo'rg'on	487	487	-	693	691	2
Qumqo'rg'on	474	474	-	798	798	
Qiziriq	246	246	-	418	418	
Sariosiyo	303	303	-	634	634	
Termiz	1 097	1 095	2	709	709	
Uzun	278	275	3	588	587	1
Sherobod	309	309	-	692	692	
Sho'rchi	349	349	-	653	653	

Jami ko'chib kelganlar vajami ko'chib ketganlar soni ming, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:
A. Astanaqulov
(55)451-80-00 (7570)
